

BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA SUGGESTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Yuldashyev Elyorjon Sodiqovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8358083>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari va ustuvor yo'nalishlari, bugungi kunda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagoglar mahoratini oshirish, pedagogik mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishga ega. Har bir pedagogik qobiliyatning o'ziga xosligi mavjud va ularning pedagog bilishi va o'zida shu qobiliyatlarni shakllantira olishi zarur ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: pedagoglar mahorati, ta'lim va rivojlanish, ta'lim-tarbiya, amaliy ko'nikmalar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik, sub'yektiv yangilik.

Kirish(Videniye/Introduction). Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ularning ilm olish va kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonini, pedagogik amaliyotlarini samarali tashkil etish talab etiladi. Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha "O'qituvchining axloqiy shakllanishi"da izlanishlar olib borgan professor M.Ochilov suggestiv qobiliyatning muhim asosi kasbiy-motivasion axloq ekanligini aytib, kasb axloqini shunday ta'riflaydi "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi". Ma'lumki, suggestiv qobiliyatni namoyon qilishda o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim o'rin tutadi. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai - nazardan yondoshilganda, professor M. Ochilovning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods). Suggestiv qobiliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik. Shuningdek, pedagog ixtisosligining ko'pgina xususiyatlari M.Kuronov, B.Muranov va M.Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi professiogrammasida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, M.Quronov, B.Muranovlarning o'qituvchi professiogrammasi asosan, o'qituvchini shaxsiy va kasbiy sifatleri, uning insoniy fazilatleri, bilimi, tashkilotchiligi, konstruktiv, gnostik, kommunikativ malakalari, amaliy ko'nikmalari tarzida izohlangan.

Hususan, shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylilik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik va h.k.lar kabi fazilatlar misolida ifodalangan bo'lsa, kasbiy sifatlar

tizimida: pedagogik ziyraklik, ma'naviy – axloqiy yangilanishning negizlarini bilishi, milliy tarbiyaning mohiyati va mazmunini chuqur anglashi, mukammal ilmiy-nazariy salohiyat, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan xabardorlik, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglash, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va h.k. tarzida o'z yechimini topgan.[1]

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar, o'tmish ajdodlarimizning tajribasi va ta'lim muassasasining amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy mohirlik, muntazam ilm olish bilan shug'ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo'lga kiritiladi. Bo'lajak o'qituvchi – tarbiyachi pedagogik mahoratining shakllanishiga muayyan tarzda ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bu omillarni e'tiborga olmaslik kasbiy pedagogik mohirlikning tarkib topishini qiyinlashtiradi. Ularni inobatga olish esa o'qituvchi mahoratining pedagogik va psixologik funksiyalarini rivojlanishini, uning madaniy - tarixiy xususiyatini oshirishini ta'minlaydi.

Natijalar (Результаты/Results). O'qituvchilik faoliyatining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, funksiyalari, tuzilmasini pedagogik-psixologik tadqiq qilgan A.N.Sherbakov, N.V.Kuzmina, V.A.Slastyoninlar "o'qituvchilik faoliyatining yo'nalishlarini"ni ilmiy nazariy va amaliy jihatdan asoslashga harakat qiladilar. Bu esa o'qituvchilik kasbining shaxsiy va kasb-korga oid qirralarini ifodalashga imkon beradi. Ayniqsa, V.A.Slastyonin o'zining "Formirovaniye lichnosti uchitelya v prosesse professionalnoy podgotovki" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik faoliyatning qirralarini ishlab chiqqan. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.[2]

O'qituvchining suggestivlik sifatleri

2.1-rasm.

Kasb-korga oid kasbiy sifatlar	Kasb-korga oid shaxsiy sifatlar
Bilimdonlik, yo'naltiruvchilik, safarbarlik, tadqiqotchilik, loyihachilik	Rivojlantiruvchilik, ishontiruvchanlik, vositachilik, tashkilotchilik, shaxsiy kamolot

Jadvalda ko'rsatilgan pedagogning suggestiv sifatleri mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

O'qituvchilik kasbining suggestiv sifatleri tasnifi:

a) Bilimdonlik:

- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
- bilimlarni gumanitarlashtira olishi;
- o'qitish vositalari (tevarak-atrofdagi buyumlar, harakatlar. modellar, chizmalar, sxemalar, jadvallar va hokazolar, o'qitishning texnika vositalari: diapozitivlar, diafilmlar, o'quv kinofilmlari, ovoz va videoyozuvlar, O'quv qo'llanmalar va o'quv qo'llanmalari, talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun moslamalar, mikrokompyuterlar)ni egallanganligi;
- o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;
- bilimlarni uzluksiz mustaqil egallab borishi;

- o'qituvchining shaxsiy sifatlari (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatlilik, epcillik, hozirjavoblik, vazminlik, ma'suliyatlilik, sinchkovlik, qat'iyatlilik, batartiblik, sabotlilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonlilik, xolislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomalalik, talabalarni sevish va ular shaxsini hurmat qilish va boshqalar).

b) Yo'naltiruvchilik:

- o'qitish tamoyillari tizimi (tarbiya va o'qitish jarayonida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ilmiylik va bilimlarning o'quvchilar imkoniyatiga yarasha qiyinlik darajasi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongliligi va ijodiy faolligi, o'qitishda ko'rsatmalilik va o'quvchilarning nazariy tafakkurini rivojlantirish, tizimlilik va izchillik, o'qitishdan bilimlarni mustaqil egallashga o'tishni ta'minlash, o'qitishni hayot, o'qitish natijalarining puxtaligi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qitishda ijobiy hissiyot yaratish, o'qitishning jamoa tusidaligi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish)ni o'zlashtirganligi.

v) Safarbarlik:

- darsda o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtirishi;
- har xil tipdagi darslar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni egallash, va ularni qo'llash, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;
- politexnik ta'limga oid va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshira olishi;
- egallangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishi;
- hazil-mutoyibani uddalay olishi;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetik va gigiyenik talablarga rioya qila olishi.

1. Rivojlantiruvchilik:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning o'quv imkoniyatlarini bilishi;
- o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'ota olishi;
- ta'limning turli usullari (bayoniy-tasviriy, reproduktiv, muammoli ta'lim, qisman-izlanuvchan yoki evristik usul, tadqiqot usuli)ni egallaganligi.

2. Loyihalovchilik:

- o'z ixtisosligi bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalay olishi;
- o'z fanining metodologik asosini bilishi, o'qitish natijalari bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish manbalarini tanlay olishi;
- o'qitishda predmetlararo ichki va tashqi aloqalarni uyushtira olishi;
- kerakli hujjatlarni to'g'ri olib borishi va rasmiylashtirishi;
- asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlash va uni o'tkazish shakllarini tanlashi;
- fan kabineti uchun zarur vositalarni aniqlash va uni qo'lda yasalgan ko'rsatmali qurollar hisobiga boyitib borish malakasiga ega bo'lish.

3. Vositachilik:

- guruh jamoasini boshqara bilishi;
- o'qitishni tashkil qilish shakllari (frontal, individual, guruh)ni egallagan bo'lishi;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlay olishi;
- muloqot jarayonida axloqiy normalarga rioya qilishi;
- lektor-targ'ibotchi malakasini egallagan bo'lishi.

4. Tashkilotchilik:

- darsni tashkil qila olishi;
- guruh rahbari ishini rejalashtirishi;
- guruhdan va darsdan tashqari ishlarni, o'z faniga oid ommaviy tadbirlarni tashkil qilishi va ularni mohirona o'tkazishi.

5. Tadqiqotchilik:

- dars, shuningdek o'quv-tarbiya tadbirlarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- ta'lim-tarbiyaga oid uncha murakkab bo'lmagan pedagogik tajribalarni o'tkazishi va ishlab chiqishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanishi;
- ilmiy va pedagogik ijodiyotga qiziqishi;
- mulohaza yuritganda fikrlashning dialektik usulini qo'llashi.

Muhokama(Обсуждение/Discussion). Ko'rib o'tganimizdek o'qituvchilik kasbi ham shaxsiy ham kasbiy sifatlarga ega ijtimoiy-pedagogik hodisa. Uni aniq tashkil qilish, o'quvchi-yoshlar bilim olish jarayonini, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllarini to'g'ri yo'naltirish pedagogik mahoratning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat singari, pedagogik faoliyat ham maxsus tayyorgarlik (ma'lumotlilik), tajriba, ixtisoslik bo'yicha bilimga ega bo'lishini talab etadi.

Agar, o'qituvchi o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, aloqa o'rnata olsa, uning konstruktiv va tashkilotchilik faoliyati ham muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu esa o'quvchi-yoshlar bilan o'zaro munosabatini yo'lga qo'yishga, ularning yosh hamda individual xususiyatlarini e'tiborga olishiga, shuningdek o'quvchilarga ta'sir eta bilishiga bog'liqdir. Bu o'qituvchilik kasbiga qo'yilgan talablarning birinchi sharti hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ularda yetakchilik sifatlarini ham tarbiyalash mumkin bo'ladi. Yetakchilik jarayoni uchta zaruriy komponentlarning o'zaro aloqadorligini ko'zda tutadi, bular: yetakchining mavjudligi, izdoshlarning mavjudligi, yetakchilik o'zaro aloqalari amalga oshiriladigan ijtimoiy muhitning mavjudligi.

O'qituvchining suggestiv qobiliyalari va tashkilotchilik sifatlari qatorida quyidagilar keltiriladi: muloqotchanlik va rivojlangan tasavvur empatiya va yuqori sezgirlik bilan birgalikda; yaqqol ifodalangan altruizm va muloqotdan quvonch hurmatga va o'zini-o'zi takomillashtirishga ehtiyoj bilan birgalikda, beg'arazlik va qalbning mustahkamligi, yuqori axloqiylik, to'g'ri so'zlik va adolat, shaxsiy maftunkorlik va boshqalar.

Xulosa(Заклучение/Conclusion). Bo'lajak o'qituvchiarning suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi muhim komponentlardan biri pedagogik ijodkorlikdir. Pedagogik ijodkorlik pedagogik jarayonda har doim yangi va asoslangan ta'lim – tarbiyaning turli metod va shakllarni qo'llay olish, kasbiy bilim va shaxsiy sifatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek pedagogik g'oyalarni anglash, o'quv tarbiya faoliyati usullari noan'anaviy topshiriqlarni yecha olish ko'nikmalarida ham ifodalanadi.

Shuningdek, suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi yana boshqa bir komponent pedagogik optimizmdir. Pedagogik optimizm – bu o'z kuchi va qobiliyatiga ishonish va o'quvchilarning qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga, yuqori o'quv va kasbiy natijalariga erishishga ishonish.

Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchisning suggestiv qobiliyati uning kasbiy va ijtimoiy-axloqiy sifatlarining integrasiyasi asosida shakllangan fazilat bo'lib, u o'quvchilarga ruhiy va emosional ta'sir ko'rsatish asosida ta'lim-tarbiya berish imkoniyatini yaratadi.

References:

1. "Ижтимоий педагогика" атамалар изоҳли луғати. Наманган.: НамДУ нашриёти. 2017. –Б. 48.
2. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. –Тошкент.: Нутқ маданияти асослари. 1993. –Б. 79.
3. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программно-целевого управления: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Барнаул, 1999. – 17 с.
4. Майоров А.Н., Сахарчук Л.Б., Сотов А.В. Элементы педагогического мониторинга и региональных стандартов в управлении. – СПб., 1992. – 35 с.
5. Турғунов С.Т. Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-хунар таълими.– 2006. – № 1. – 55-б.
6. Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103-107
7. Шодмонов Қ.О. Олий ўқув юртлари касб таълими йўналиши ўқувчиларини бошқарув фаолиятига тайёрлаш: Пед.ф.н. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 201 б.
8. Madumarov, T., Haidarov, R., & Gulomjonov, O. (2023). IDEAS OF HUMANISM IN THE WORK OF ALISHER NAVOI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 3(2), 116-118.